
SHUKRONALIK VA MEHR-MURUVVAT BAYRAMI

Ramazon – nafaqat ibodat, Allohning ajru savoblariga erishish, balki xayru saxovat, insonlar o'rtasida mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlovchi muborak oydir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan muborak Ramazon oyi kunlarida yurtimiz mahallalarida kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj, ehtiyojmand fuqarolar, nuroniylar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Bu kabi xayr-saxovat tadbirlari Rishton tumani mahallalarida ham tashkil etilmoqda.

Ana shunday saxovat tadbirlaridan biri 2-sektor hududidagi Guliston MFYda o'tkazilib, unda Guliston Zohidon, Mevazor, Yoshlik, Amirobod va Polvonobod MFYlarda yashovchi ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolar uchun bo'lib o'tdi. Dasturxon atrofida yig'ilganlar yurtimizga tinchlik, qut-baraka, xalqimizga ahillik tilab duolar qildilar.

Iftorlik tadbirida tuman prokurori R. Madaliyev hamda sektor rahbarlari qatnashdilar.

2023-03-29 06:31:39